

QO‘QON XONLIGI HARBIY MUSIQA SAN‘ATINI O‘RGANISHDA ARXIV MANBALARINING AHAMIYATI

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti dotsenti (v.b.), tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0005-9934-2717>

kokand1709@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davriga oid arxiv hujjatlarida harbiy musiqa san‘atining aks etishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlil qilingan. Unda xonlik harbiy qo‘shinlari tarkibidagi mu

siqachilar faoliyati, nog‘oraxona tizimi, harbiy musiqa cholg‘ularining ta‘minoti hamda ularning harbiy boshqaruvdagi o‘rni arxiv manbalari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, arxiv, patta, nog‘ara, harbiy, Baxti Muhammad qo‘rboshi, Sulton Murodbek.

Аннотация: В данной статье проанализированы сведения, отражённые в архивных документах периода Кокандского ханства, связанные с военным музыкальным искусством. На основе архивных материалов освещены деятельность музыкантов в составе военных подразделений ханства, система накараханы, обеспечение военными музыкальными инструментами, а также их роль в военном управлении.

Ключевые слова: музыка, архив, патта, нагора, военный, Бахти Мухаммад курбаши, Султан Мурад-бек.

Abstract: This article analyzes information related to military musical art reflected in archival documents of the Kokand Khanate period. Based on archival sources, the study highlights the activities of musicians within the military forces of the khanate, the system of the naqqarakhana, the supply of military musical instruments, and their role in military administration.

Keywords: music, archive, patta, nagora, military, Bakhti Muhammad Qurbashi, Sultan Muradbek.

Qo‘qon xonligi davri musiqa san‘ati va uning tarkibiy yo‘nalishlariga oid ma‘lumotlar tarixiy manbalar hamda arxiv hujjatlarida nisbatan kam uchraydi. Xonlik tarixiga bag‘ishlangan qirqdan ortiq tarixiy asarlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ularda musiqa madaniyati, ayniqsa harbiy musiqa faoliyati va ushbu soha vakillari haqida batafsil ma‘lumotlar deyarli uchramaydi. Mazkur holat, avvalo,

tarixnavislarning asosiy e‘tibori siyosiy voqealar, sulolaviy kurashlar, diplomatik munosabatlar va harbiy yurishlarga qaratilganligi bilan izohlanadi. Shu sababli xonlik davri musiqa san‘ati tarixini o‘rganishda mavjud qisqa ma’lumotlar ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, Sharq davlatlari harbiy tizimida musiqiy jamoalar muhim o‘rin egallagan. Qo‘qon xonligi qo‘shinlari tarkibida ham harbiy marosimlar va jangovar harakatlarda faol qatnashuvchi maxsus musiqachilar guruhi mavjud bo‘lgan. Xonlik qo‘shinlari safida nog‘orachi, karnaychi, surnaychi, dafchi, duhulzan kabi ijrochilar xizmat qilgan bo‘lib, ular oshpazlar, qassoblar va tug‘chilar qatorida harbiy tizimning tarkibiy qismi hisoblangan [1]. Ushbu musiqachilar jang vaqtida qo‘shin harakatlarini boshqarish, harbiy buyruqlarni yetkazish, yurish yoki hujum boshlanganini bildirish kabi vazifalarni bajargan bo‘lsa, tinchlik davrida xon tomonidan tashkil etilgan harbiy ko‘riklar, rasmiy qabul marosimlari, saroy tantanalari hamda xon o‘rdasidagi turli tadbirlarda ishtirok etgan.

Qo‘qon xonligi harbiy musiqa tizimida ishlatilgan cholg‘ularning aksariyati baland ovozli zarbli va puflama cholg‘ulardan iborat bo‘lgan. Jumladan, nog‘ora, karnay, surnay, daf, duhul kabi cholg‘ular harbiy maqsadlarga mosligi bilan ajralib turgan. Bunday cholg‘ularning asosiy vazifasi nafaqat qo‘shin ichida axborot uzatish, balki jang maydonida ruhiy ta’sir o‘tkazishdan ham iborat edi. Ayniqsa, kuchli va baland ovoz chiqaruvchi cholg‘ular orqali dushman qo‘shinlari orasida sarosima uyg‘otish, o‘z qo‘shinining jangovar ruhiyatini ko‘tarish va saf tartibini boshqarish imkoniyati mavjud bo‘lgan. Shu jihatdan harbiy musiqa Qo‘qon xonligi harbiy san‘atining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy manbalarda harbiy musiqa faoliyatiga oid ma’lumotlar ko‘p bo‘lmasa-da, mavjud ma’lumotlarning o‘ziyoq Qo‘qon xonligi harbiy tizimida ushbu sohaning muayyan darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Xususan, harbiy yurishlar va saroy marosimlarida musiqachilar ishtirokining qayd etilishi, ularning maxsus xizmat guruhi sifatida faoliyat yuritganidan dalolat beradi. Bu esa Qo‘qon xonligi

saroy madaniyati va harbiy an‘analarida musiqa san‘ati muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon xonligi davri musiqa madaniyatini o‘rganishda yozma tarixiy manbalar bilan bir qatorda arxiv hujjatlari ham muhim manba vazifasini bajaradi. O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan ayrim hujjatlar orqali xonlikdagi musiqa faoliyati, ayniqsa harbiy musiqa tizimiga oid ayrim ma’lumotlarni aniqlash mumkin. Mazkur hujjatlar ilk bor sharqshunos olim A. L. Troitskaya tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Tadqiqotchining Каталог архива кокандских ханов XIX века nomli asarida Qo‘qon xonlari arxiviga oid hujjatlar tizimli ravishda tasniflangan bo‘lib, unda musiqa faoliyatiga daxldor hujjatlar ham alohida qayd etilgan.

Muallif tomonidan harbiy sohaga oid hujjatlar tarkibida jami to‘qqizta hujjat qisqacha tavsiflangan bo‘lib, ushbu hujjatlar orqali xonlikdagi harbiy musiqachilar faoliyati, ularning vazifalari hamda saroy va qo‘shin tizimidagi o‘rni haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin [2]. Mazkur hujjatlar, garchi hajman ko‘p bo‘lmasa-da, Qo‘qon xonligi musiqa madaniyatining ayrim jihatlarini tiklashda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ayniqsa, ular orqali harbiy musiqa tizimining davlat boshqaruvi va saroy marosimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid keyingi davr tadqiqotlarida A. L. Troitskaya tomonidan tasniflangan arxiv hujjatlari muhim fundamental manba sifatida xizmat qildi. Ayniqsa, olimaning Каталог архива кокандских ханов XIX века asari xonlikning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayotiga oid ko‘plab masalalarni tadqiq etishda asosiy manbalardan biriga aylandi. Mazkur katalog orqali ilmiy muomalaga kiritilgan hujjatlar keyingi tadqiqotchilar uchun Qo‘qon xonligi tarixining ilgari yetarlicha o‘rganilmagan jihatlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Xususan, xonlikning harbiy tizimi va qo‘shin tuzilishini o‘rganishda ushbu arxiv materiallari alohida ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotchi B. Tursunovning

nomzodlik dissertatsiyasida Qo‘qon xonligi qo‘shin tarkibi, harbiy boshqaruv tizimi hamda qo‘shin tarkibidagi xizmat guruhlari arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotda harbiy musiqachilar faoliyatiga ham alohida e‘tibor qaratilib, qo‘shin tarkibida faoliyat yuritgan nog‘orachi, karnaychi, surnaychi va boshqa musiqachilar guruhi haqida muhim ma‘lumotlar keltiriladi [3].

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish hamda xonlikdagi harbiy musiqachilar faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar tahlil qilindi. Mazkur hujjatlarning katta qismi 1872–1873-yillarda Marg‘ilon begi Sulton Murodning xo‘jalik ishlarini boshqaruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritgan Baxti Muhammad tomonidan yozilgani aniqlanadi [4]. Hujjatlarda uning nomi “Baxti Muhammad qo‘rboshi” tarzida qayd etilgan bo‘lib, bu holat uning Marg‘ilon hokimi o‘rdasida aynan qo‘rboshi mansabida xizmat olib borganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon xonligida qo‘rboshi mansabi muhim harbiy lavozimlardan biri hisoblangan. Qo‘rboshi qo‘rxona, ya‘ni qurol-aslaha, yaroq va to‘p yasash ustaxonalari faoliyatiga rahbarlik qilgan hamda xon va mingboshiga bo‘ysungan. U miltiqxona va to‘pxonalar ishini boshqarib, xom ashyo topish, qurol-yarog‘ tayyorlash va ularni xon farmoniga muvofiq taqsimlash kabi vazifalarni bajargan [5].

Arxiv hujjatlarida uchraydigan ayrim ma‘lumotlar qo‘rboshi faoliyati faqat harbiy qurol-aslaha bilan cheklanmaganini ham ko‘rsatadi. Jumladan, noma‘lum shaxs tomonidan yozilgan bir pattada nog‘oraxona uchun nog‘ora, dovul, karnay, nay hamda ular uchun kamar va boshqa zarur jihozlar kerakligi qayd etilgan [6]. Mazkur murojaat aynan Baxti Muhammad qo‘rboshiga yo‘llangan bo‘lib, bu holat harbiy musiqa asboblari ta‘minlash va nog‘oraxona faoliyatini tashkil etish ishlari ham qo‘rboshi nazorati ostida bo‘lganini anglatadi.

Marg‘ilon hokimi Sulton Murodbek tomonidan Baxti Muhammad qo‘rboshiga yo‘llangan yana bir hujjatda sarbozlar uchun dovul va nog‘ora ajratish masalasi qayd etilgan. Mazkur hujjatning orqa tomoniga Sulton Murodbek muhri

bosilgani uning rasmiy xarakterga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi [7]. Ushbu manba Qo‘qon xonligi viloyatlaridagi harbiy qo‘shinlar tarkibida ham maxsus musiqachilar jamoasi faoliyat yuritganligini tasdiqlovchi muhim dalillardan biridir. Chunki harbiy qismlar uchun nog‘ora va dovul kabi cholg‘u asboblarning ajratilishi harbiy musiqa amaliyoti muntazam yo‘lga qo‘yilganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi harbiy qo‘shinlari tarkibining muhim qismlaridan biri sifatida shakllangan musiqiy ansambllar faoliyatiga oid arxiv hujjatlarini o‘rganish hamda ushbu ma’lumotlarni boshqa yozma manbalar, tarixiy asarlar va ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilish xonlik davridagi musiqiy hayotni yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi. Ayniqsa, harbiy orkestrlar, nog‘oraxona faoliyati, musiqachilar tarkibi, ularning vazifalari va moddiy ta’minotiga oid ma’lumotlar Qo‘qon xonligida musiqa san’ati faqat madaniy-maishiy hayotda emas, balki harbiy boshqaruv tizimida ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, arxiv materiallarini kompleks ravishda tadqiq etish xonlikning harbiy-musiqiy an’analari, saroy madaniyati hamda ijtimoiy-madaniy hayotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент: 2014. – Б. 49.
2. Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968. – 298-299 с.
3. Турсунов Б.Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70-йилларигача): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: 2006. – Б. 99.
4. Хатамова З.Н. Қўқон хонлиги солиқ тизими тарихидан. – Фарғона: 2022. – Б. 66.
5. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Ўрта Осиё хонликлари давлат бошқаруви тарихидан (XIX–XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 12.
6. О‘zMA, I-1043 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2035-yig‘majild.
7. О‘zMA, I-1043 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2037-yig‘majild.